

“TASDIQLAYMAN”

Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori

Sh. Teshayev

2024-y.



Buxoro davlat tibbiyot institutining

“Ayollar biznesiga birinchi qadam” tanlovi

## NIZOMI

### 1. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87 Farmonida belgilangan topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 222-son qarorining 2-ilovasi “Ayollar biznesiga birinchi qadam” tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomida belgilangan talablarga muvofiq o‘tkaziladi. Ushbu tanlovga Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yoshlarni yo‘naltirish iborat

### 2. Maqsad va vazifalar

2. “Ayollar biznesi uchun birinchi qadam” tanlovning asosiy maqsadi – iqtidorli va iste‘dodli xotin-qizlar, ayollar va yosh olimalarning innovatsion faoliyati natijalari va tashabbuslarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning ilmiy izlanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish hamda salohiyatli yoshlarni ilm-fanga keng jalb etishdan iborat.

### 3. Topshiriladigan biznes loyiha shartlari

- Loyiha ijrochilarining tarkibi faqatgina xotin-qizlardan iborat bo‘lishi
- Loyiha ijrochilarining yoshi ularning ilmiy darajasi, unvoni, mansabi va ish joyidan qat’iy nazar 40 yoshdan oshmasligi;
- 1 ta jamoa 1 ta loyiha bilan ishtirok etishi lozim;
- Topshirilgan biznes loyihani amalga oshirish uchun so‘ralgan mablag‘ miqdori Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-sonli qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomdagi hajmidan oshmasligi.
- Biznes loyihalarni to‘liq ishga tushirishning yakuniy muddati bir yilgacha bo‘lishi.

### 4. Tanlov shartlari

3. Taqdim etilgan biznes loyihalar tanlov talablariga qat’iy rioya qilinganligi, loyiha materiallarining ishonchliligi va haqqoniyligi, ko‘chirmachilikka (plagiat) yo‘l qo‘yilmaganligi, belgilangan talablar asosida shakllantirilganligi bo‘yicha dastlabki texnik ekspertizadan o‘tkaziladi. G‘oliblarni aniqlashda maxsus komissiya bayonnomasi bilan



g'oliblar ro'yxati e'lon qilinadi. Ushbu bayonnoma qaroriga muvofiq institut rektori buyrug'i bilan g'oliblar taqdirlanadi.

### 5. O'tkaziladigan sanalar

- Loyihalarni qabul qilish: 2-maydan 25-maygacha;
- Loyihalarni ekspertizadan o'tkazish: 26-may 7-iyun
- G'olib bo'lgan loyihalarni rag'batlantirish: 10-iyun

### 6. Loyixalarni baholash


4. Tanlovga qatnashish uchun berilgan loyihalar expert hakamlar tomonidan o'rganilib, tanlov talablariga va shartlariga tog'ri kelgan holda, sanoati rivoji uchun foydasi tegadigan eng namunaviy loyihalar g'olib deb topiladi.

No	Mezonlar	Asos (fakt)	Belgilangan ball
1	G'oya yoki loyihaning ilmiy va innovatsion yangiligi	Amalga oshirilgan yoki taklif etilayotgan yangi loyihaning taqdimoti asosida	10 ballgacha
2	G'oya yoki loyihaning aniq bir muammoning yechimiga yo'naltirilganligi;		10 ballgacha
3	Mavjud analoglaridan afzalligi		10 ballgacha
4	Biznes modeli va monetizatsiyasi (reklama orqali foyda olish)		10 ballgacha
5	G'oyaning amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar		10 ballgacha
6	Loyiha maket na'munasining mavjudligi		20 ballgacha
7	Loyiha taqdimotining mukammalligi	O'rnatilgan tartibdagi savol-javoblar asosida	10 ballgacha
8	Loyiha pasporti, biznes-rejasi va xarajatlar smetasi hujjatlari to'ldirilganligi	Shakllantirilgan loyiha hujjatlarini ko'rib chiqish asosida	20 ballgacha
<b>Jami:</b>			<b>100 ballgacha</b>

### 7. G'oliblarni taqdirlash

5. Tanlovning baholash mezonlari asosida saralab olingan g'olib ishtirokchilar institut ma'muriyatining maxsus diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektor

  
M.Sanoyeva